




7-sinf matematikadan 1-BSB savollari

1. Rasmda tasvirlangan to'g'ri chiziqlar va nuqtalar uchun quyidagilarni aniqlang: (5 ball)

- 1) a to'g'ri chiziqqa tegishli;
- 2) har ikkala to'g'ri chiziqqa tegishli;
- 3) a to'g'ri chiziqqa tegishli, lekin b to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lmagan;
- 4) b to'g'ri chiziqqa tegishli, lekin a to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lmagan;
- 5) a to'g'ri chiziqqa ham, b to'g'ri chiziqqa ham tegishli bo'lmagan nuqtalarni.




2. Agar $C \in AB$, $D \in AB$, $AB = 7$ cm, $AC = 3,5$ cm va $BD = 5,2$ cm bo'lsa, CD kesma uzunligini toping. (5 ball)

3. AB kesmani C va D nuqtalar ketma-ket kelgan AC , CD va DB qismlarga ajratadi. Agar AC kesmaning uzunligi 30 mm, CD kesma AC kesmadan 0,05 dm qisqa, DB kesma esa CD dan 0,2 cm uzun bo'lsa, AB kesmaning uzunligini toping. (5 ball)

4. Agar qo'shni burchaklar 19:17 nisbatdaligi ma'lum bo'lsa, shu burchaklar necha gradus ekanligi aniqlang va bu qo'shni burchaklarni transportir yordamida chizing. (5 ball)

5. Agar $\angle BOC = 62^\circ$, $\angle COD = 12^\circ$, $\angle AOB = 42^\circ$ bo'lsa, BOC va DOF burchaklar bissektrisalari orasidagi burchakni toping. (5 ball)





Baholash mezonlari

№	Ball	Javob	Deskriptor
1	5	1) A, O, E; 2) O; 3) A, E; 4) D; 5) C.	Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball dan jami 5 ball
2	5	1,7 cm	1) Masala shartiga mos chizma chiza olsa, 2 ball ; 2) Masala shartiga mos chizmani to'g'ri chizib, AD (yoki CB) kesma uzunligini to'g'ri topsa, 3 ball ; 3) AD va AC (yoki CB va BD) kesma uzunliklaridan foydalanib, CD kesma uzunligini to'g'ri topsa, 5 ball .
3	5	82 mm	1) Masala shartida berilgan qiymatlarni bitta uzunlik birligiga aylantirib olsa, 2 ball ; 2) CD kesma uzunligini to'g'ri topsa, 3 ball ; 3) DB kesma uzunligini to'g'ri topsa, 4 ball ; 4) AB kesma uzunligini to'g'ri topsa, 5 ball .
4	5	95°, 85°	1) Burchaklarni 19x va 17x kabi belgilab olsa, 1 ball ; 2) Qo'shni burchaklar yig'indisi 180° ga tengligidan tenglama tuzib olsa, 2 ball ; 3) Tuzilgan tenglamani yechib burchaklarning gradus o'lchovlarini to'g'ri topsa, 3 ball ; 4) Burchaklarning gradus o'lchovlarini to'g'ri topib, transportir yordamida to'g'ri chiza olsa, 5 ball ;
5	5	75°	1) <i>DOF</i> burchak kattaligini to'g'ri topsa, 1 ball ; 2) <i>DOF</i> burchak kattaligini to'g'ri topib, uning bissektrisasi qanday burchaklarga ajratishini to'g'ri topsa, 2 ball ; 3) <i>BOC</i> burchak bissektrisasi qanday burchaklarga ajratishini to'g'ri topsa, 1 ball ; 4) <i>DOF</i> va <i>BOC</i> burchak bissektrisalari ularni qanday burchaklarga ajratishini to'g'ri topsa, 3 ball ; 5) <i>DOF</i> va <i>BOC</i> burchak bissektrisalari orasidagi burchakni to'g'ri topsa, 5 ball .
Topshiriqlarni boshqa usullar bilan to'g'ri va to'liq yechgan bo'lsa, bu topshiriq uchun ajratilgan maksimal ballni berish mumkin			
Jami:		25 ball	